

O'ZBEKISTON- IJTIMOIY-HUQUQIY DAVLAT

Mamanazarov Solijon Sherzodbek o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

solijonmamanazarov01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolda O'zbekiston Respublikasining aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash, ularning mehnat qilishi, ishsizlikdan himoyalanishi haqida davlat siyosati haqida so'z yuritiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilgan ishlar Andijon viloyatining ushbu sohadagi ishlar hisoboti ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: davlat, ijtimoiy(sotsial) davlat, huquqiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, bandlik, sog'lioni saqlash, ijtimoiy daftarlari(temir, yoshlar, ayollar).

Ijtimoiy davlat- bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarini adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi birinchi marta XIX asr o'rtalarida Lorens fon Shteyn tomonidan ilgari surilgan. U davlat g'oyasi tenglik va erkinlikni tiklash, kam ta'minlangan sinflarni boy va kuchlilar darajasiga ko'tarish, davlat “barcha a'zolarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini amalga oshirishi, chunki birining rivojlanishi boshqasining rivojlanishining sharti va natijasidir”. Ijtimoiy davlat – umumiyl tamoyillari (aralash iqtisodiyot, ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etish va boshqalar) dunyoning iqtisodiy rivojlangan aksariyat mamlakatlarida amalga oshirilgan model. Ijtimoiy davlat tushunchasi L.F.Shteyn, J.Ofner, F.Nauman,

A.Vagner asarlarida ilk marotaba shakllana boshlagan. Farovonlik davlati nazariyasining eng izchil modeli Lorens fon Shteynning “1789-yildan beri Fransiya ijtimoiy harakati tarixi” asarida bataafsил yoritib berilgan. Ijtimoiy davlat modeli Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Belgiya, Daniya, Findland, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya, Avstriya, Gretsya, Yaponiya, Niderlandy, Shveytsariya, AQSh kabi davlatlarda qo‘llanilmoqda. Huquqiy va dunyoviy davlat tushunchasi Germaniya, Ispaniya, Italiya, AQSh, Fransiya kabi davlatlar konstitutsiyalarda ifodalangan.

“Huquqiy davlat” kategoriyasi bilan bir qatorda “ijtimoiy davlat” fenomenini ilmiy tadqiq va tahlil mavzusiga aylantirish muhim ilmiy, amaliy hamda metodologik ahamiyatga ega. Ijtimoiy davlatchilik tushunchasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga keldi. Bu davrda noliberal nazariyatchilar “erkinlik”ning yangi “pozitiv” talqinini ilgari surib, davlatning jtimoiy yo‘naltirilgan siyosati g‘oyasini ilgari surishdi. Ikkinci jahon urushidan keyin bir qator G‘arbiy Yevropa davlatlarining ya’ni Germaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Daniya, Shvetsiya va boshqa bir qator davlatlarning Konstitutsiyalarida “sotsial davlat” ya’ni “ijtimoiy davlat” formulasi o‘z ifodasini topgan edi. Ijtimoiylikning eng asosiy sharti esa inson shaxsiga, uning sha’ni, qadr-qimmati, erkiga asrab-avaylash pozitsiyasida bo‘lishdan iborat.

Yuridik adabiyotlarda ijtimoiy davlatning tabiatga, belgi va xususiyatlariga oid turli ta’riflarlar berib kelinadi. Ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy davlatni fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta’minlovchi davlat deb baholanadi. Ammo bu ta’rif ijtimoiy davlat atamasini yetarlicha ochib bera olmaydi. U ancha teran mazmun-mohiyatga egadir. Rossiya Fanlar Akademiyasining muxbir a’zosi, yuridik fanlar doktori M.V.Baglayning fikricha “Sotsial(ijtimoiy) davlat- fuqarolarni ish bilan ta’minalashga sharoit yaratadigan, umumiyl daromadlarni budget vositasida qayta taqsimlaydigan, odamlarga turmush kechirishning eng quyi chegarasini(minimumni) ta’minalaydigan, kichik va o‘rtalik mulkdorlar hissasi ko‘payishiga ko‘maklashadigan, yollanma mehnatni muhofaza qiladigan, ta’lim madaniyat, sog‘liqni saqlash va oila masalasida g‘mxo‘rlik qiladigan, ijtimoiy ta’minotni muntazam yaxshilaydigan davlatdir”. Professor O.E.Leyts tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra “sotsial davlat-nafaqat huquqiy tartibotni muhofazalashi, shuningdek kam ta’minlanganlar va butun

jamiyat manfaati uchun ijtimoiy siyosatni amalgalash oshirishi lozim". Professor E.I.Kozlova va O.E.Kutafin ijtimoiy davlatni ijtimoiy tenglik, umumiy hamjihatlik va o'zaro ma'sullik prinsiplarining huquq vositasi mustahkamlanganligiga tayanib, yuksak ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashni bosh vazifasi deb biluvchi davlat deb ta'riflaydilar. Ijtimoiy davlat zaif insonlarga ko'maklashadi, iqtisodiy(moddiy) boyliklarni ijtimoiy adolat prinsipi asosida taqsimlab, har bir insonga munosib hayot kechirishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlatning funksiyasi ancha keng bo'lib, bular: aholi bandligini ta'minlash, jamiyat miqyosida moddiy boyliklarni byudjet yo'li bilan muvozanatlash, fuqarolarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ularni muhofaza etish, ta'lim-tarbiya borasida g'amxo'rlik qilish, oilalarni himoya qilish, ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshi yo'lga qo'yish, aholi sog'ligini saqlash va sportni rivojlantirish kabi funksiyalardan iborat. Mazkur sohalardagi ijtimoiy faoliyat iqtisodiyotga davlat aralashuvini kengaytirmaydi, balki erkin bozor iqtisodiyotini qo'llab quvvatlash va tadbirkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ijtimoiy davlatning maqsadlariga erishish ijtimoiy siyosat uslublari bilangina chegaralanib qolmasdan, tegishli qonunchilik va ma'muriy tashkiliy tuzilmalarni ham vujudga keltirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobi "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" deb nomlanib, ushbu bob tarkibiga kiruvchi 42-43-moddalarida fuqarolar erkin kasb tanlash va faoliyat yuritish, xavfsiz va gigiyenik jihatdan qulay sharoitda mehnat qilishi, ishsizlikdan muhofazalanish huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zaruriyatini hisobga olgan holda belgilanadi. Ishga qabul qilishda qonunda monelik qiluvchi holatlardan tashqari barcha holatlarda ularni jinsi jihatidan, homiladorlik holatlaridan qat'iy nazar ishga qabul qilinadilar. 1998-yil 1-maydag'i 616-I-sod bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuni (21.01.2021-yil yangi tahriri) ham aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash va munosib ish darajasi bilan ta'minlash kabi holatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar

strategiyasi”ning 4-yo‘nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan. Ushbu yo‘nalish doirasida aholi bandligini ta’minlash, fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab quvvatlash va himoya qilish va ularni salomatligini saqlash choralarini ko‘rish nazarda tutiladi. Dastur doirasida 78 ta tuman tibbiyat birlashmasi, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyat markazini qayta qurildi, tez tibbiy yordam xizmati 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta’minlandi. So‘nggi yillarda jamiyat a’zolari t omonidan ko‘p qo‘llanilayotgan Temir daftar, Yoshlar daftari, Ayollar daftari kabi Ijtimoiy himoyaning yagona restri asosida shakllantirilayotgan, aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlashning bir ko‘rinishidir.

Mamlakatimiz rahbarining 2021-yil 7-dekabr O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilingani munosabatining 29-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida so‘zlagan nutqida ham bu masalaga alohida to‘xtalib o‘tgan edi. “...hozirgi kunda O‘zbekiston ijtimoiy davlat vaadolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqtি-soati yetdi”..., “Ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi. U shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta’minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir. Shular qatorida yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta’minlanish, majburiy mehnatga taqiq qo‘yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy davlatda hech kim e’tibordan chetda qolmaydi, o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘yilmaydi”.

Bugungi kunda 2023-yilda yangidan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston- boshqaruvning respublika shakliga

ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deb ta’kidlandi.

Itimoiy himoyaga muhtojaholini har tomonlama qo‘llab quvvatlash va daromadini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlarni qay tartibda amalga oshirilayotganini ko‘rsatish misolida birgina Andijon viloyatini misol tariqasida olsak birgina 2022-yilda viloyat miqiyosida 54.6 mingta yangi ish o‘rni yaratildi, ushbu vazifa belgilangan prognozlarga nisbataan 126.6 foizga bajarildi. Bandlikka ko‘maklashish markaziga ish so‘rab murojaat qilgan 72.4 ming nafar fuqaroning 68 foizi ish bilan ta’minlandi. Kam daromadli 18 mingta xonadonda 2 mln bosh parranda boqish yo‘lga qo‘yildi. Ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolarga jami 28 mldr so‘mlik moddiy ko‘mak ko‘rsatildi. Sog‘liqni saqlash sohasida bir muncha ishlar amalga oshirilganiga qaramay viloyat bo‘yicha tug‘ruq komplekslarida 10 ta onalar o‘limi qayd etildi. 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi ham qariyb 11 foizga ortgan. Fuqarolar tashabbusi loyihasi uchun qariyb 12.6 mldr so‘mlik mablag‘ aholi ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun ajratildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. X.T.Odilqoriyev Davlat va huquq nazariyasi darslik-IIV-2018
2. X.T.Odilqoriyev Konstitutsiyaviy huquq darslik-IIV-2014
3. I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasining marhum birinchi prezidenti O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida T-O‘zbekiston-1995
4. Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash- yurt taraqqiyot va xalq farovonligining garovi T-O‘zbekiston-2017 16-bet
5. Lex.uz hukumat sayti
6. uz.lidep UZLiDeP sayti
7. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy huquqi-2007 V.M.Beglay
8. Fuqarolik jamiyati, davlat va huquq-1998 O.E.Leyts
9. Rossiya konstitutsiyaviy huquqi-1999 E.I.Kozlova, O.E.Kutafin